

KORPORATIV NIZOLARNI HAL QILISHDA DA'VO MUDDATINI QO'LLASH: QIYOSIY HUQUQIY YONDASHUV

Maqolani yozdi: S.N.Ko'rganboyev

Advokatlik faoliyati huquqi fakulteti, magistrant.

Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

sardorbekyurist01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzu orqali korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati institutining ahamiyati va amaliy roli qiyosiy huquqiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Dastlab, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy protsessual qonunchiligida da'vo muddati tushunchasi va uning korporativ nizolarga nisbatan tatbiq etilishi yoritilgan. Shundan so'ng, Germaniya, Fransiya va AQSh kabi rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslanib, da'vo muddati bo'yicha me'yoriy tartiblar o'rganilgan hamda ularning samaradorlik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, korporativ huquq subyektlarining huquqiy manfaatlarini himoya qilishda da'vo muddatining aniqligi va maqbulligi muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy protsessual huquq, korporativ nizo, da'vo muddatining turlari, umumiy va maxsus da'vo muddatlari, umumiy va continental huquqiy tizimlari.

Abstract. This topic analyzes the significance and practical role of the statute of limitations in resolving corporate disputes based on a comparative legal approach. Initially, the concept of the statute of limitations and its application to corporate disputes within the economic procedural legislation of the Republic of Uzbekistan is examined. Following that, the regulatory frameworks regarding limitation periods in developed countries such as Germany, France, and the United States are explored, with an emphasis on their effectiveness. Additionally, the importance of clarity and appropriateness of limitation periods in protecting the legal interests of corporate law subjects is highlighted.

Key words: Economic procedural law, corporate dispute, statute of limitations, types of limitation periods, general and special limitation period, common law system, continental (Romano-Germanic) legal system.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini himoya qilish, investorlar ishonchini mustahkamlash va xususiy sektorning rivojlanishini ta'minlashda korporativ nizolarni samarali hal etish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ushbu nizolarni hal qilishda da'vo muddati institutining huquqiy tabiatini o'rganish va uning amaliyotdagi o'rni katta ahamiyatga ega. Korporativ nizolar ko'p hollarda aksiyadorlar, ishtirokchilar va korxonalar o'rtasida yuzaga keladi. Ushbu nizolarni hal

etishda da'vo muddati cheklovlari huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ish korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati institutining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston huquqi tajribasini Germaniya va Fransiya huquqiy tizimlari bilan qiyoslashga bag'ishlangan.

Da'vo muddati – bu subyektiv huquq buzilgan taqdirda shaxsning sud orqali o'z huquqini tiklash uchun qonun bilan belgilanadigan muayyan vaqt oralig'idir¹. Mazkur institut fuqarolik huquqida muhim tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy maqsadi huquqiy aniqlikni ta'minlash va vaqtinchalik omillar tufayli huquqni suiiste'mol qilishning oldini olishdan iborat. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 149-moddasiga ko'ra da'vo muddati bu — shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Fuqarolik Kodeksi da'vo muddati umumiy tartibda 3 yil etib belgilangan². Biroq iqtisodiy ishlarning taalluqligiga ko'ra bir turi sifatida ko'riladigan korporativ nizolar doirasida ushbu muddat biroz murakkab holatlarni yuzaga keltiradi. Chunki nizolarning xarakteri o'ziga xos bo'lib, ko'pincha moliyaviy hisobotlar, aksiyadorlar yig'ilishi qarorlari yoki rahbariyatning noqonuniy harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu kabi holatlarda da'vo muddatining qachon boshlanishi masalasi dolzarb hisoblanadi.

Korporativ nizolarni fuqarolik nizolaridan ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri – ularning subyektlari maxsus (aksiyadorlar, ishtirokchilar, boshqaruv organlari) bo'lishidir. Bundan kelib chiqadiki, korporativ da'volar o'zining huquqiy va amaliy murakkabligi bilan ajralib turadi. Shu sababli da'vo muddati bu nizolarda ko'proq huquqiy ishonchlilikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, da'vo muddati qonuniylik prinsipini himoya qiladi. Agar muayyan muddat ichida subyekt o'z huquqini himoya qilmasa, bu huquqdan foydalanish imkoniyati yo'qoladi. Ammo korporativ nizolarda bu masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur: ayrim hollarda nizoning mavjudligi o'z vaqtida aniqlanmasligi mumkin.

Ana endi da'vo muddatining turlarini tahlil qiladigan bo'lsak, fuqarolik qonunchiligi da'vo muddatlarining ikki xil ko'rinishini belgilaydi. Bunday tartib qadimgi Rim fuqarolik huquqida yaratilgan bo'lib, Rim huquqi asos bo'lgan kontinental huquq tizimiga mansub davlatlarning ko'pchiligida amal qiladi. Masalan, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarda ham da'vo muddatlari ikki ko'rinishda mavjud. Fuqarolik Kodeksi da'vo muddatlarini to'g'ridan-to'g'ri: umumiy va maxsus da'vo muddatlariga bo'ladi³. Biroq ularning tushunchasiga to'xtalib o'tmaydi. FK faqatgina umumiy va maxsus da'vo muddatlari mavjudligini, hamda ularning amal qilish vaqtlarini o'zida ifodalaydi.

Huquqiy adabiyotlarda da'vo muddatining turlariga doir doktrinal ilmiy ta'riflar ko'plab huquqshunos olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Masalan, O.S. Ioffening fikricha, umumiy da'vo muddati deb nomlanishiga sabab, bunday muddatlarning

barcha fuqarolik munosabatlariga qo'llanishidadir, agar qonunda bu qoidani istisno etuvchi o'zga holat belgilanmagan bo'lsa⁴. A.P. Sergeevning ta'kidlashicha, umumiy da'vo muddati qonun bilan maxsus muddatlar asosida tartibga solinmaydigan barcha fuqarolik munosabatlariga tatbiq etiladigan muddatlardir⁵.

Umumiy qoidaga ko'ra, da'vo muddati uzluksiz davom etadi. Lekin, hayotda shunday holatlar bo'ladiki, bu holatlar belgilangan muddat davomida buzilgan huquqni himoya qilishga to'sqinlik qiladi, yoki shaxs ana shu to'sqinliklar va holatlar mavjud bo'lganligi uchun o'z huquqlarini amalga oshira olmay qoladi. Da'vo muddatining o'ta boshlashi — bu huquqiy talabni qo'zg'atish uchun kerakli vaqtning boshlanish nuqtasini anglatadi. Da'vo muddati odatda huquqiy zarar yoki huquqning buzilganligi paytida boshlanadi. Biroq, ba'zi hollarda da'vo muddati haqiqatan zarar ko'rilgan kundan emas, balki zarar haqida bilim olingan kundan boshlanishi mumkin.

Masalan, aksiyador o'zining aksiyalariga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarni aniqlagach, bu holatni sudga kiritishi mumkin. Biroq, agar aksiyador ilgari bu xatti-harakatlarni aniqlamagan bo'lsa, unda da'vo muddati zarar haqida xabar topgan kundan boshlab hisoblanadi, ya'ni bu muddat to'liq vaqtinchalik bo'lib, zarar ko'rilgan kundan emas, balki huquqiy bilishni olingan kundan boshlanadi. Da'vo muddatining uzaytirilishi - agar da'vo qiluvchining huquqi yoki zararini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, ba'zi qonunlar da'vo muddatini uzaytirishga ruxsat beradi. Bu holat, masalan, maxsus shartnomalar asosida yoki nizolarni hal qilishdagi texnik kechikishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Misol: Agar aksiyadorlarning huquqlari buzilganligi haqida aniq hujjatli dalillar topilsa, da'vo muddati uzaytirilishi mumkin. Da'vo muddatining to'xtatilishi - ba'zi holatlarda da'vo muddati ba'zi shartlar asosida to'xtatilishi mumkin. Masalan, agar tomonlardan biri kasallik yoki boshqa og'ir holat tufayli sudga murojaat qila olmasa, da'vo muddati shu davrda to'xtatilishi mumkin. Bunday hollarda, da'vo muddati shartli ravishda to'xtatiladi va tomonga sog'aygandan keyin yana davom etadi. Misol uchun, agar aksiyador kasallik tufayli sudga murojaat qila olmasa, da'vo muddati uning kasallik davri davomida to'xtatilishi mumkin.

Korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati institutining ahamiyati turli davlatlarda farq qiladi. Har bir huquqiy tizimda bu institutning amaldagi tartibga solinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu bo'limda biz O'zbekiston, Germaniya va Fransiya huquqiy tizimlarida korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati qanday belgilanganligini tahlil qilamiz. O'zbekiston huquqiy tizimida da'vo muddati asosan Fuqarolik kodeksi va iqtisodiy protsessual kodeks bilan belgilangan. Korporativ nizolar bo'yicha umumiy da'vo muddati 3 yilni tashkil etadi. Bu muddat, masalan, aksiyadorlarning huquqlari buzilgan taqdirda, ularning da'vo qilish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida da'vo muddati boshlanishi uchun maxsus qoidalar mavjud bo'lib, ular aksiyadorlar yig'ilishi qarorlarining qonuniyligini tekshirishda va boshqaruv organlarining noqonuniy harakatlariga qarshi da'vo

qo'zg'atishda muhim o'rin tutadi. "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 41-moddasining birinchi qismiga ko'ra jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining ushbu Qonun va boshqa qonunchilik, jamiyatning ustavi talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bahsli qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat ishtirokchisining arizasiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday ariza jamiyat ishtirokchisi qabul qilingan qaror to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran ikki oy ichida berilishi mumkin. Bunda ikki oylik muddat yig'ilishda ishtirok etgan ishtirokchi uchun qaror qabul qilingan kundan, yig'ilishda ishtirok etmagan ishtirokchi uchun esa u qaror to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

Sudlar shuni e'tiborga olishlari lozimki, "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 41-moddasida belgilangan ikki oylik muddat maxsus da'vo muddati hisoblanadi va u sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sudning hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi⁶. Ushbu muddatning o'tkazib yuborilganligi sabablari da'vogarning iltimosnomasiga asosan sud tomonidan uzrli deb topilib, FKning 159-moddasiga muvofiq tiklanishi mumkin.

Germaniya huquqiy tizimida korporativ nizolar bo'yicha da'vo muddati haqida aniq tartib belgilanadi. Germaniya Fuqarolik kodeksida (BGB) va Korporativ qonunchilikda korporativ nizolarni hal qilish uchun bir qancha maxsus vaqt cheklovlari mavjud. Umumiy da'vo muddati ko'pincha 3 yil bo'lib, lekin aksiyadorlarning aksiyalarini sotish yoki boshqaruv organlarining qarorlari bilan bog'liq da'volar uchun 1 yillik muddat belgilanadi⁷. Germaniya tizimida da'vo muddati ko'pincha nizoning yuzaga kelgan kundan boshlab hisoblanadi, lekin ba'zi hollarda da'vo muddati boshlanishi uchun maxsus holatlar talab qilinadi.

Fransiya huquqiy tizimida ham da'vo muddati muhim ahamiyatga ega bo'lib, Fransiya fuqarolik kodeksi va tijorat kodeksi asosida korporativ nizolarni hal qilishda aniq vaqt cheklovlari belgilangan. Fransiyada da'vo muddati ko'pincha 5 yil bo'lib, aksiyadorlarning huquqlarini buzish yoki boshqaruv organlarining qarorlari bilan bog'liq nizolarda bu muddat 2 yildan 5 yilgacha o'zgarishi mumkin⁸. Fransiya tizimida da'vo muddati, ayniqsa, moliyaviy hisobotlar va audit tekshiruvlari bilan bog'liq nizolarda ko'proq uzaytirilishi mumkin. Buning sababi, ba'zi nizolarni aniqlash va ularni isbotlash uchun uzoqroq vaqt talab qilinishi mumkin. Shunday qilib, O'zbekiston, Germaniya va Fransiya qonunchiliklaridagi farqlarni tahlil qilganimizda, da'vo muddati masalasi har bir mamlakatda o'zining maxsus yondashuvlari va tizimlariga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston huquqiy tizimida da'vo muddatining boshlanishi va uzaytirilishi masalalari ba'zan aniq belgilangan bo'lsa-da,

Germaniya va Fransiya tizimlarida qo'shimcha maxsus shartlar mavjud. Bu farqlar, albatta, amaliyotda ham o'z aksini topadi.

Korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati institutining huquqiy jihatlari o'zining o'zgarish ahamiyatiga ega. Da'vo muddati nafaqat tomonlarning huquqlarini himoya qilish, balki ularni isrof qilishning oldini olish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston huquqiy tizimida da'vo muddati, umumiy qoida sifatida, 3 yilni tashkil etsa-da, bu muddat korporativ nizolarda qo'llaniladigan maxsus qoidalar bilan o'zgartirilishi mumkin. Shu bilan birga, bu muddatning boshlanishi va uzaytirilishi bo'yicha mavjud huquqiy me'yorlarning amaliyoti ko'pincha turli xil murakkab holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Germaniya va Fransiya huquqiy tizimlarida ham da'vo muddati institutiga katta ahamiyat beriladi, ammo ularning yondashuvlari va da'vo muddatini belgilash tartibi O'zbekiston qonunchiligidan farq qiladi. Germaniyada, masalan, 1 yillik maxsus muddatlar va ba'zi hollarda da'vo muddatining uzaytirilishi masalasi ko'proq ta'kidlanadi. Fransiyada esa da'vo muddati ko'proq moslashuvchan bo'lib, nizolarni hal qilishda ko'proq vaqt talab qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston huquqiy tizimida korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati masalasida ba'zi takomillashtirishlarni amalga oshirish zarur. Xususan, da'vo muddati boshlanishining aniqligi va uzaytirilishi bo'yicha qonunchilikka yanada aniqroq normativlar kiritilishi lozim. Germaniya va Fransiya tajribalarini o'rganish, O'zbekiston tizimiga qo'shimcha yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Masalan, sudga murojaat qilish uchun ko'proq vaqt ajratish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va nizolarni hal qilishda samarali mexanizmlar yaratish talab etiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, korporativ nizolarni hal qilishda da'vo muddati instituti huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida O'zbekiston iqtisodiy islohotlari kontekstida katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Fuqarolik kodeksiga ko'ra umumiy da'vo muddati 3 yilni tashkil etsa-da, korporativ nizolarga xos maxsus muddatlar, masalan, "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonunning 41-moddasidagi 2 oylik muddat, nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, da'vo muddatining boshlanishi va uzaytirilishi masalalarida qonunchilikdagi noaniqliklar amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Germaniya va Fransiya huquqiy tizimlarida da'vo muddati ko'proq moslashuvchan va maxsus shartlarga bog'liq. Germaniyada korporativ nizolar uchun 1 yillik maxsus muddatlar, Fransiyada esa 2-5 yillik muddatlar qo'llaniladi, bu esa nizolarni aniqlash va isbotlash uchun qo'shimcha vaqt ajratadi. O'zbekiston qonunchiligida bunday moslashuvchanlik yetishmaydi, bu esa aksiyadorlar va ishtirokchilar huquqlarini himoya qilishda muammolar keltirib chiqaradi. Ushbu tezis korporativ nizolarning o'ziga xos xususiyatlarini (subyektlar,

huquqiy murakkablik) va da'vo muddati institutining nazariy asoslarini muvaffaqiyatli yoritadi. Biroq, amaliy muammolar va sud amaliyotidagi qiyinchiliklar yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. O'zbekiston huquqiy tizimida da'vo muddati masalasini takomillashtirish uchun aniqroq normativlar kiritish, Germaniya va Fransiya tajribasidan foydalanib, muddatlarning moslashuvchanligini oshirish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Ushbu choralar investorlar ishonchini mustahkamlash va xususiy sektor rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- 2) "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-son;
- 3) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi O'RQ-370-son;
- 4) "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida" gi O'RQ-310-son;
- 5) "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" gi OSPQ-262-son;
- 6) "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida" gi OSPQ-282-son.

Darslik, o'quv qo'llanma va maqolalar:

- a) Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adbiyotlar Publish, 2022-y;
- b) Korporativ nizolarni sudda ko'rishga oid ayrim masalalar / amaliy qo'llanma / S.Xolbayev, M.Saidov. – Toshkent:, 2023.
- c) Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko'rishning o'ziga xos jihatlari [Matn]: sudyalari va aholi uchun amaliy qo'llanma / M.Saidov. – Toshkent: , 2019. – .
- d) Гражданское право. Т.И // по. ред. А.И. Сергеева, Ю.К. Толстого. М.: Проспект. 2003. – 364 с.